

MAVZU: BOLALARDA PROFILAKTIK EMLASHLAR

**Yusupova Nasibaxon Egamberdiyevna***Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi**Maxsus fani o'qituvchisi.*

Emlash yoki **vaksinatsiya** — [odam](#) va [hayvonlarda](#) infeksiyon kasalliklar yuqishining oldini olish usuli. Bunda [organizmga vaksinalar](#), immun zardoblar yoki gammaglobulin yuborib, sun'iy faol yoki passiv immunitet hosil qilinadi. Sun'iy faol immunitet hosil qilish uchun odam vaksinalar bilan emlanadi, bunda organizmda yuborilgan vaksina tarkibidagi antigenlarga qarshi faol [immunitet](#) rivojlanadi.

Emlashda vaksinalarni teri ustiga, teri ostiga, [muskul](#) orasiga, [burun](#) va [og'iz](#) orqali yuborish mumkin. Vaksinalar bilan emlash jadvali har xil: bir marotaba, ikki, uch marotaba va hokazo. Sun'iy faol immunitet immunizatsiya tugaganidan so'ng 2-3 hafta o'tgach paydo bo'ladi va oylab, hatto yillab saqlanib qoladi.

Sun'iy passiv immunitet organizmning himoya faoliyatini oshirish, ko'zda tutilgan tegishli yuqumli kasallikka qarshi chidamlilik yoki boshlangan kasallikning kechishini yengillashtirish maqsadida qilinadi. Bir qancha yuqumli kasalliklar (odamlarda [gepatit V](#), [sil](#), [bo'g'ma](#), [qoqshol](#), [ko'kyo'tal](#), [qizamiq](#), [tepki](#), [poliomiyelit](#); hayvonlarda [brutsellyoz](#), [quturish](#), [o'lat](#), [oqsim](#) va boshqalar)ga qarshi rejali ravishda; ayrim yuqumli kasalliklar ([gripp](#), [ich terlama](#), [kuydirgi](#), [tulyaremiya](#) va boshqalar)ga qarshi esa epidemiologik zaruriyat bo'yicha emlanadi (Shuningdek qarang: [Immunoprofilaktika](#)).

Emlash poliklinikalarda yoki emlash markazlarida maxsus tayyorlangan [tibbiyot](#) xodimi tomonidan vrach nazoratida o'tkaziladi. Bolani emlashdan avval uning gavda harorati o'lchanadi va qanday kasalliklar bilan og'riganligi so'rab surishtiriladi; vrach bolani sinchiklab tekshirib, uni emlash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlaydi. Yuraktomir, markaziy nerv sistemasi kasalliklaridan tuzalgan yoki surunkali kasalliklari bor bolalar tegishli muhassislar ko'rigidan o'tganidan so'ng emlanishi lozim. Bola emlanganda ba'zan kuchli reaksiya yuzaga keladi, shuning uchun emlangandan keyin u ma'lum bir vaqt davomida vrach nazoratida bo'lishi kerak.

Emlash mahalliy va umumiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni emlangan joy sal qizarishi, shishishi, og'rishi, harorat ko'tarilishi va umumiy darmonsizlik kuzatilishi mumkin. Emlangan bola juda bezovtalansa, qattiq isitmalasa darhol vrachga murojaat qilish zarur.

Bolalar yoki kattalarning emlanganligi haqidagi ma'lumotlar ularning tibbiy hujjatiga qayd etiladi. Ota-onalar bolasiga qanday emlash o'tkazilganini va qaysilari qachon qilinishi kerakligini yaxshi bilishlari, shuningdek, emlashning belgilangan muddatda o'tkazilishiga amal qilishlari zarur, chunki o'z vaqtida o'tkazilgan emlash juda yaxshi naf beradi.

Bugungi kunda Respublikamizda ko'pgina og'ir kechuvchi yuqumli kasalliklarga qarshi rejali ravishda va epidemiologik holatlarga qarab bolalar va xavfli guruhga kiruvchi katta kishilar davlat tomonidan bepul emlanadi. O'tkazilgan chora-tadbirlar tufayli [O'zbekiston](#) hududida [shol kasalligi](#) oxirgi yillarda qayd etilmayapti, shuningdek, [bo'g'ma](#), [qizamiq](#), [tepki](#), [gepatit V](#) kasalliklari bolalar orasida keskin kamaydi.

Emlash — boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik samarali chora bo'lib, infektsiya o'choqlarini jilovlash va bartaraf etishda asosiy vosita hisoblanadi.

Shu bois yurtimizda Milliy profilaktik emlash kalendari joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra, bolalar 13 turdagi yuqumli kasalliklarga qarshi rejali emlanadi.

Bola vaktsina olgach, nimalarga e'tibor berish lozim?

— Vaktsina olishga ko'rsatma yoki qarshi ko'rsatmalarni faqat shifokor aniqlaydi. U esa emlash masalasini hal qilish, aynan qaysi vaktsinani olish, bolani bu jarayonga tayyorlash va undan keyingi kuzatuv bo'yicha ota-onalarga kerakli tavsiyalar beradi.

Ya'ni, shifokor bolaning surunkali kasalliklari, avvalgi emlash preparatlariga reaksiyalari yoki asoratlari, dori vositalariga va oziq-ovqatlarga allergik reaksiyalari haqida qisqa so'rov o'tkazadi.

Shuningdek, suhbat davomida bola organizmining o'ziga xos xususiyatlari (chala tug'ilishi, tug'ilishda olgan jarohatlar, talvasa), yuqumli kasalliklar bilan og'rikan bemorlar bilan muloqotda bo'lgan yoki bo'lmaganligi hamda eng so'nggi emlashdan keyin qancha vaqt o'tgani aniqlanadi.

Agar bola tana harorati ko'tarilishi bilan kechuvchi o'tkir yuqumli kasalliklar (shamollash, angina, bronxit, gripp, zotiljam) bilan og'rikan bo'lsa, qoidaga muvofiq ushbu muolaja u sog'aygunga qadar qoldiriladi. Shu bilan birga, bolaning allergik reaksiyasi bo'lsa, shifokor bilan avvaldan zarur qo'shimcha choralar to'g'risida maslahatlashiladi.

Vaktsina olishga bir necha kun qolganda yoki emlashdan keyingi ilk kunlari bolaga yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini berish mumkin emas. Agar kichkintoy ko'krak suti bilan oziqlantirilsa, ona o'z rasioniga yangi eguliklarni kiritmagani ma'qul.

Emlashdan keyin odatda shifokor yoki hamshira ota-onalarga emlash xonasidan uzoq bo'lmagan joyda 30 daqiqa kutib o'tirishlarini tayinlaydi. Bu farzandni tinchlantirish hamda vaktsinaga nisbatan reaksiyasi bo'lgan hollarda unga kerakli yordam ko'rsatish uchun zarur.

Shuningdek, mutaxassis zarur hollarda bolaga qancha dozada tana haroratini tushiruvchi vositalar berish mumkinligi va qanday belgilar kuzatilganda, shifokorga murojaat qilish kerakligi haqida ma'lumot beradi.

Emlashdan so'ng bolaga ko'proq suyuqlik ichirish lozim. Buning uchun gazlanmagan suv, achchiq bo'lmagan choy, moychechak damlamasi tavsiya etiladi. Biroq sharbatlar mumkin emas. Chunki bu ichimlik vaktsinadan keyin organizmning qarshi kurashini kuchaytirib, unga ko'nikishini uzoqlashtiradi.

Qolaversa, vaktsina olgach, (odatda 3 kun) odamlar yig'iladigan joylarga borish, ko'pchilik bilan muloqot qilish tavsiya etilmaydi. Ayniqsa, emlangandan so'ng bolani yo'tal, aksa urish, ich ketishi kabi yuqumli kasallik belgilari bo'lgan odamlar bilan muloqotda bo'lishining oldini olish zarur.

Bolaga ko'proq vaqt ajratib, birgalikda o'ynash, emlashdan keyin uning taomlanishi va qorni to'qligiga e'tibor berish kerak.

O'zbekistonda odam tug'ilgandan boshlab 16 yoshgacha turli yuqumli kasalliklarga qarshi emlanishi lozim. Buning uchun maxsus milliy taqvim tasdiqlangan.



Profilaktik emlashlar taqvimi



Yoshi	Emlash turlari
	1-kunida VGV-1
	2-5 kunida BSJ-1
	2 oylikda penta-1 (AKDS-1, VGV-2, XIB-1), OPV-1 Rota-1, PNEVMO-1
	3 oylikda penta-2 (AKDS-2, VGV-3, XIB-2), OPV-2 Rota-2, PNEVMO-2
	4 oylikda penta-3 (AKDS-3, VGV-4, XIB-3), OPV-3, IPV-1
	9 oylikda IPV-2
	12 oylikda KPK-1, PNEVMO-3
	16 oylikda AKDS-4, OPV-4
	6 yosh KPK-2
	7 yosh ADS-M – 5, OPV-5
	9 yosh VPCH
	16 yosh ADS-M – 6

Eslatma: KPK – uch valentli qizamiq, qizilcha, epid parotitga qarshi tirik vaktsina
AKDS+VGV+XIB – besh valentli-ko'k'yo'tal, bo'g'ma, qoqshol, gepatit V va XIB infeksiyalariga qarshi vaktsina
Rota – rotavirus infeksiyaga qarshi ichiriladigan vaktsina
Pnevmo – pnevmokokk infeksiyaga qarshi vaktsina
IPV – inaktivlashgan poliomyelit vaktsinasi
VPCH – odam papilloma virusiga qarshi vaktsina
OPV – og'iz orqali yuboriladigan poliomyelit vaktsinasi
XIB – yiringli-septik kasalliklariga qarshi profilaktika uchun vaktsina
BSJ – silga qarshi vaktsina
ADS-M – bo'g'ma va qoqsholga qarshi vaktsina

Chaqaloqlarni tug'ilgan vaqtida unga tug'ruqxonada olishi lozim bo'lgan emlashlar va ularni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan "Emlash pasporti" beriladi. Emlash pasportida har bir o'tkazilgan va navbatda o'tkazilishi lozim bo'lgan emlashlar ko'rsatilib qo'yiladi.

Bolalar emlashdan oldin shifokor ko'rigidan o'tkazilishi lozim. Bolalarni profilaktik emlanishidan oldin birinchi navbatda emlanayotgan bolaning umumiy holatiga baho beriladi. Emlanayotgan bolaning umumiy holatiga baho berishlik bolani sog'ligi haqida ota-onasi yoki bolani olib kelgan shaxsdan so'raladi. Bunda emlashga qarshi ko'rsatmalar bo'lganligi, avvalda emlash o'tkazilganda nojo'ya reaksiyalar kuzatilganligi aniqlanadi.

Emlashdan so'ng

- Shifokoringizga savollar bering, emlashdan keyin bo'ladigan asoratlarni haqida ma'lumot oling va qanday chora tadbirlar o'tkazish kerakligini bilib oling;
- Emlashdan so'ng poliklinikada kamida 30 daqiqa o'tiring;
- AKDS vaktsinasini issiq ob havoda o'tkazmaganingiz ma'qul, agar vaktsinatsiya qilingan bo'lsa, uyga qaytganingizdan keyin bolaga haroratni tushiruvchi prepratlar bering;

• Agar bolada tana harorati ko'tarilsa (bu AKDS da norma) – xona haroratida turgan suv bilan bolani ho'llash mumkin (bunda spirtidan (!) foydalanmang, u nozik terini ta'sirleydi).

• Bolada harorat tushiruvchi prepartlar o'zining nojo'ya ta'sirlari va qabul qilish limiti borligini ham unutmang;

• Isitmani tushirish uchun aspirin preparatini 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga berish Qat'iyan man qilinadi;

• AKDS vaktsinatsiyasida faqatgina tana harorati ko'tarilmay, umumiy holsizlik, talvasalar ham kuzatilishi mumkin. Bu holat shartli ravishda norma hisoblanadi.

• Emlash o'tgandan 3 kun o'tib bolaning ovqatlanish tartibini ham o'zgartirish mumkin;

• Ineksiyadan keyin mahalliy reaksiyalar paydo bo'lsa, o'sha joyga iliq kompress qilish zarur, masalan iliq suv bilan;

Noaktiv vaktsinalarning nojo'ya ta'sirlari, ko'pincha yondosh holatlar bilan tushuntiriladi – masalan emlangan vaqtda bolaning tishi chiqayotgan, yoki bolada shamollash asoratlari boshlanayotgan bo'ladi;

Chin va soxta qarshi ko'rsatmalar

Tibbiyot amaliyotida emlashlarga qarshi bir qator qarshi ko'rsatmalar bor, masalan:

• Chin qarshi ko'rsatmalar – vaktsina preparatlariga haqiqatdan ham qarshi ko'rsatmalar bo'lgan holatlarga aytiladi. Bular vaktsina yo'riqnomasida keltirilgan bo'ladi.

• Soxta qarshi ko'rsatmalar – ayrim malakasiz shifokorlar yoki qarindosh urug'larning vaktsinalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan aytiladigan holatlardir.

Bundan tashqari:

• Shartli (nisbiy, vaziyatga bog'liq) qarshi ko'rsatmalar – bunday holatlar ham chin qarshi ko'rsatmalar hisoblanib, bola organizmining individual holati, epidanamneziga asoslanib shifokor tomonidan belgilanadi. Masalan, ayrim vaktsinalarga bo'lgan reaksiyalar. Shu kabi holatlarda antigistamin preparatlar qo'llanilib, so'ng vaktsina o'tkaziladi.

• Vaqtinchalik qarshi ko'rsatmalar – qon va siydik tahlilidagi kamchiliklar, tana harorati oshishi, holsizlik va yallig'lanish jarayonlari kechayotgan holatlarda.

• Doimiy qarshi ko'rsatmalar – bu ham chin qarshi ko'rsatmalar hisoblanib, vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketmaydiga holatdir. Masalan immune tizimi defitsit.

• Umumiy qarshi ko'rsatmalar – surunkali va o'tkir kasallik davrlaridagi qarshi ko'rsatmalar.

T/ r	Vaktsinala	Qarshi ko'rsatmalar
---------	------------	---------------------

1	Barcha vaksinalar	Kuchli allergik reaksiya yoki avvalgi olingan vaksinada reaksiyalar bo'lgan bo'lsa
2	Barcha tirik vaksinalar OPV	Immun tanqisligi holatlari, immunosupressia, o'sma kasalliklari
3	BSJ (silga qarshi vaksina)	Bola tug'ilganda 2000 gr-dan past vaznda tug'ilgan bo'lsa
4	AKDS	Asab tizimi tomonidan kamchiliklar bo'lsa, anamnezida tutqanoqlar bo'lsa
5	Qizamiq, parotit, qizilchaning kombinirlangan vaksinasi	Allergik reaksiyalarning og'ir ko'rinishlari. Tuxum oqsiliga anafilaktik reaksiyalar
6	Virusli gepatit B	Allergik reaksiyalar
7	ADS, ADS-m, AD-M (bo'g'ma, qoqshol)	Qo'llanmadagi qarshi ko'rsatmalar

Emlashdan keyingi reaksiyalar — u yoki bu turdagi vaksinani yuborgandan keyin yuz beradigan klinik va laboratorik o'zgarishlarga aytiladi.

Ba'zi turdagi vaksinalar yuborilganda (BSJ, Sariq isitmaga qarshi vaksinalar) yuz beradigan mahalliy o'zgarishlar immunitet hosil bo'lishi uchun zarur shartlar hisoblanadi.

Yuz beradigan reaksiyalar kechish darajasi yengil holatdan o'ta og'ir holatgacha bo'lishi mumkin.

Yengil darajasidagi mahalliy reaksiyalar (vaqtincha haroratni ko'tarilishi, inyeksiya qilingan joyda qichishishni bo'lishi) aksariyat xollarda AKDS vaksinasi bilan emlanganlarni 20-50%da uchraydi. Tana haroratini biroz ko'tarilishi, qisqa muddatli injiqlik va ishtahani yomonlashgani me'yor darajasidagi reaksiya deb baholanib, davolash o'tkazish talab etilmaydi.

Emlashdan keyingi asoratlari (PVO) — organizmda kechadigan klinik buzilishlarning kechish tezligi, xarakteri va og'ir bo'lishi bilan emlashdan keyingi reaksiyalardan farq qiladi.

Emlashdan keyingi asoratlarda bemorning holati o'ta og'ir holatda bo'lishi, ayniqsa uzoq kechadigan davomiy asoratlari yuz berishi kam uchraydi. Emlashdan so'ngi reaksiyalar va asoratlari to'g'risidagi ma'lumotlar (klassifikatsiyasi, klinikasi, diagnostikasi) O'zbekiston Respublikasi SSVning 2015-yildagi 36-sonli buyrug'ini 5-ilovasida keltirilgan.